

**XX ASRNING 40-YILLARI O'RTALARI - XX ASR 90-YILLARI
BOSHLARIDA O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA ANTIK DAVR
SHAHARLARIDA ARXEOLOGIK IZLANISHLAR NATIJALARI
(Xorazm vohasi misolida).**

Karimov Zafar Bekturdiyevich

Urganch davlat universiteti Tarix kafedrası o'qituvchisi

e.mail: Temurmali154@gmail.com

Annotatsiya: XX asrning 40-yillari o'rtalaridan 90-yillarning boshlariga qadar O'zbekiston hududlarida qadimgi davr shaharlariga oid arxeologik izlanishlar katta ahamiyat kasb etdi. Ushbu davrda olib borilgan tadqiqotlar natijasida, mamlakatning tarixiy va madaniy merosi haqida yangi ma'lumotlar ochib berildi. Antik davr shaharlarining joylashuvi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, savdo aloqalari va madaniyati haqida ko'plab qiziqarli faktlar to'plandi. Arxeologik qazishmalar davomida topilgan artefaktlar, me'moriy yodgorliklar va boshqa materiallar O'zbekistonning qadimgi davrdagi roli va ahamiyatini yanada oshirdi. Ushbu izlanishlar nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqotlar natijalari kelajakdagi arxeologik ishlar uchun yangi istiqbollarni ochdi va zamonaviy ilmiy metodlarni qo'llash orqali qadimgi davr shaharlarini o'rganish jarayonini rivojlantirishga yordam berdi.

Kalit so'zlari: Tuproqqal'a, Manqirqal'a, Gaurqal'a, Yorbekirqal'a, Burgutqal'a, Yakka Porson, Katqal'a, Oybuyirqal'a.

Аннотация: С середины 1940-х до начала 1990-х годов археологические исследования древних городов Узбекистана стали приобретать все большую значимость. Исследования, проведенные в этот период времени, дали новые факты об исторической и культурной истории страны. Было обнаружено много интересных деталей относительно местонахождения древних городов, их

социально-экономической жизни, торговых контактов и культуры. Артефакты, архитектурные памятники и другие предметы, обнаруженные во время археологических раскопок, добавили значимости и значения Узбекистана в древние времена. Эти работы являются ценными источниками для изучения истории не только Узбекистана, но и всей Центральной Азии. Результаты исследований также открыли новые пути для будущих археологических исследований, а также способствовали развитию процесса исследования древних городов с использованием современных научных методов.

Ключевые слова: Тупроккала, Манкиркала, Гауркала, Ёрбекиркала, Бургуткала, Якка Порсон, Каткала, Ойбуйиркала.

Abstract: From the mid-1940s to the early 1990s, archaeological study on ancient cities in Uzbekistan became increasingly important. Research undertaken during this time period gave new facts about the country's historical and cultural history. Many fascinating details regarding the location of ancient towns, their socioeconomic life, trade contacts, and culture were discovered. Artifacts, architectural monuments, and other items discovered during archaeological excavations have added to the importance and significance of Uzbekistan in ancient times. These works are valuable resources for learning the history of not only Uzbekistan, but all of Central Asia. The studies' findings have also opened up new avenues for future archaeological research, as well as contributed to the development of the process of researching ancient cities using modern scientific methods.

Key words: Tuproqkala, Manqirkala, Gaurkala, Yorbekirkala, Burgutkala, Yakka Porson, Katkala, Oybuyirkala.

Kirish. O'zbekiston hududida ilmiy markazlari etnografiya va arxeologiya bo'limlari arxeologik guruhlarini tarixiy obidalarni ro'yxatga olish, ularning kartografiyasini ishlab chiqish, ilmiy rejaga ega bo'lgan loyiha asosida aholi turar-joylarida sistemali ravishda o'rganish maqsadida yangi arxeologik ekspeditsiya va guruhlar faoliyatlarini boshlaganlar. XX asr adabiyotlar va mustaqillik yillaridan o'troq

ziroatkor aholi tomonidan bunyod qilingan turar-joylarda arxeologik tekshirishlar natijalarini quyidagi tarixiy davrlarga ajratish mumkin.

Birinchi tarixiy davr – XIX asrning 80-yillari o‘rtalari - XX asr 30-yillari boshlari

Ikkinchi tarixiy davr – XX asr 30 yillari-1940 yillari;

Uchinchi tarixiy davr – XX asr 40 yillari o‘rtalari-1990 yillari;

To‘rtinchi tarixiy davr – 1991-2023 yillari manbashunosligi.

Asosiy qism. Uchinchi tarixiy davrda XX asr 40 yillari o‘rtalari – 90 yillari. Xorazm arxeologiya-etnografiya (1945) ekspeditsiyasi arxeologik yodgorliklarda qazish ishlarini davom ettirdilar. 1945 yilda N.N.Vakturskaya, M.G.Voroyeva Katta Guldursun yodgorligi ichki qismida va mudofaa devorida olib borgan arxeologik izlanishlar natijasida mil. avv IV asrga oid ashyolarni olishga erishganlar [1]. 1945-1948 yillarda Tuproqqal’a saroyida 130 ta uy-xonalari hamda uchta burchak burjlarida qazish ishlari olib borildi, natijada 7500 m² maydonni egallagan. Qazishma natijalariga ko‘ra, milodiy III asrga oid noyob manbalar olingan [2].

1950 yildan Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari Amudaryo Dovdon shimoli irmog‘i sohili etagida Manqir yodgorligida qazish ishlarini olib borgan. Yodgorlik topografik joylashishi (420x410 m). U to‘rt tomoni ikki qatorli devor bilan, avvalo paxsa, keyingi qurilish davrida kvadrat g‘isht (40(41)x40(41)x10(11) sm devor yuqoriga ko‘tarilgan [3]. Manqirqal’a bilan birga Dovdon irmog‘i janubiy sohili adog‘ida joylashgan Yorbekirqal’a (hajmi 6 ga) yodgorligi ichki qismida shurf ishlari olib borilgan, madaniy qatlamlaridan afrig‘iyalar davri ilk va rivojlangan o‘rta asrlarga oid manbalar olingan [4]. Yodgorlik topografik joylashishi kvadrat shaklda, atrof ikki qatorli mudofaa devor o‘rab olingan. Tashqi devorda yarim aylana burjlar joylashgan (jami 10 ta).

1952 yilda Sulton Uvays tog‘i tarkibida Qoratog‘ tizimida Gaurqal’a shimoli-g‘arbiy burchagidagi uy-xonasida qazish ishlari olib borilgan, tashqi devor ikki qavatli shinaklar joylashgan. Topografik joylashishi uchburchakka yaqin, shimoldan-janubiy tomon yunalgan. Shimoliy devor uzunligi 200 m, sharqiy devor 50 m uzunlikda janubga yo‘nalgan, sharqiy devor 450 m, g‘arbiy va janubiy devor bir qismi Amudaryo yuvib

ketgan, qolgan qismi sohil etagida 400 m saqlanib qolgan yodgorlik ikki qismga ajralgan. Qazishma ishlari shimoliy va g'arbiy devordan olib borilgan [5].

Yu.A.Rapoport 1952 yilda Shaxsanamda arxeologik izlanishlar olib borgan. Yodgorlik Ko'hna Urganchdan 80 km janubi-g'arbida joylashgan, XIII asr arab manbalarida Suburni atamasi qayd qilingan Ko'hna Urganchdan Shaxsanamgacha aloqa yo'li 100 km, Yorbekir orqali esa 120 km. Yodgorlik tekislikda joylashgan, sharqiy tomonida Charmanyop sug'orish inshooti kengligi 25 m. Yodgorlik topografik joylashishi to'g'ri bo'lmagan uchburchak. Devor uzunligi 900 m, maydoni 56700 m², to'rt tomoni devor bilan o'rab olingan, saqlanib qolgan balandligi 2,5-9 m.

1953-1954-yillarda Burgutqal'a va Yakka Porson vohalarida tadqiqotlar davom ettirildi va bu vohalarda o'ndan ortiq mulk va qal'alar, jumladan, eng yiriklari – Burgutqal'a va Yakka Porsonda qazishma ishlari olib borildi [6]. 1958-1960 yillarda M.G.Vorobyeva, M.S.Lapirova-Skoblo, E.E.Nerazik Xorazm vohasi janubiy darvozasi bo'lgan, Toshsaqadan Amudaryodan to'g'ri chiqarilgan magistral sug'orilish inshooti sohili hududiga bunyod qilingan Xazoraspni ichki qismida va mudofaa devorida arxeologik izlanishlarni olib borishi munosabati bilan mil. avv IV asrga oid manbalarni olishga erishishgan. 1954 yilda Xorazm ekspeditsiyasi Bozorqal'a yodgorligida qazishma ishlari olib borilishi natijasida olingan moddiy ashyolarni ilmiy tahlil qilib, uning qurilishi ikki tarixiy davrdan iborat ekanligini isbot qiladigan manbalarga asoslanib, unda kechgan xo'jalik-madaniy hayot mil.avv V – milodiy IV asrlarga oid bo'lgan [7]. 1958-1959 yillarda A.V.Gudkova Nukus shahridan 14 km shimoli-g'arbiy hudud yuzasi tuzilishini namoyon qilgan Tuqtov balandligida bunyod qilingan To'qqalada qazishma ishlarini olib borgan. Uni topografik joylashish holati noto'g'ri to'rtburchak shaklda qurilgan. U ikki qismdan iborat bo'lib, uning hajmi 8 ga [8]. 1958-1960 yillarda G.P.Snesarev Katqal'a (Shovot) yodgorligida qisman qazish ishlarini olib borib, yodgorlik tarixiga oid manbalarni olganlik natijalari nashrlarda o'z aksini topmagan. 1962-1965 yillarda V.N.Yagodin rahbarligida arxeologik guruh Mizdaxqonda keng qamrovli ravishda olib borgan qazishma ishlari munosabati bilan mil. avv IV asrga oid olingan [9]. 1965 yilda

Yu.P.Manilov Beruniy tumani Amudaryo o'ng sohili etagiga ulanib ketgan Katqal'ada mudofaa devorida va ichki hududida qazishma ishlarini olib borishi natijasida mil. avv IV asrlar hamda rivojlangan o'rta asrlarda madaniy hayot davom etganligiga oid manbalarni olgan [10]. YUNESKO tashabbusi bilan 1970 yilda shaharning 2500 yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi [11].

1976-1977 va 1981 yillarda Mambetullaev Oybuyirqal'ada qazish ishlari natijasida olingan ashyolar mil. avv V – milodiy III asrlarda faoliyat olib borganligidan dalolat beradi [12].

1965-1975, 1976-1982 yillarda Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari E.E.Nerazik, Yu.A.Rapoport Beruniy tumani hududida tekislikka aholi tomonidan bino qilingan Tuproqqal'a (rejasi to'g'riburchak 500x340 m, hajmi 17 ga). Arxeologik izlanishlar natijasida uchta qurilish davri aniqlangan. Asosiy qazishma ishlari saroyda olib borilishi natijasida 150 ga yaqin uy-xonalari ochilgan. Uy-xonalari devorida aks etgan tasvirlardan kelib chiqib "askar zali", "g'alaba zali" nomlariga ega bo'lgan yodgorlik milodiy III-IV asrga oid bo'lgan [13]. 1956 yilda E.E.Nerazik Kaltaminor sug'orish qa'lali adog'ida tekislikka bunyod qilingan Dumanqal'ada qazishma ishlarini olib borib milodiy I – IV asrlarga oid manbalarni olgan [14]. 1981-1982 yillarda Mambetullayev rahbarligida guruh Kardaranxos sug'orish inshooti sohili hududida Qalajiq mudofaa devorida olib borgan arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan ashyolar mil. avv IV – milodiy IV asrlarda madaniy-xo'jalik markaz vazifasini bajargan [15]. Yodgorlikda ilk va rivojlangan o'rta asrda mudofaa qobiliyati davom etgan. 1972-1975 yillarda N.N.Vakturskaya Tuyamo'yin hududida joylashgan Sadvar topografik joylashishi to'g'riburchak shaklda umumiy maydoni 20 ga yodgorlik ikki qatorli paxsa va kvadrat g'ishtli devor o'rab olgan (yo'lak kengligi 2,5 m). Tashqi devor yarim aylana burj oraliq maydoni 23-28 m (jami 10 ta yarim aylana burj) [16]. 1973-1974 yillarda M.Mambetullayev Shovot tumani Manoq qishlog'i hududida joylashgan Voyanganda qazishma ishlari natijasida mil. avv IV asrga mansub kulolchilik namunalarini olgan [17].

1979 yilda E.B.Bijanov rahbarligida arxeologik guruh Ustyurt janubi-sharqiy hududida joylashgan Davkasgan yodgorligida (260x730 m) 28 ga, yodgorlikda olib borilgan qazishma ishlari natijalarigaga ko'ra, mil. avv IV asrda bunyod qilingan, unda madaniy-xo'jalik hayot va etnik munosabatlar kechgan [18]. 1981 yilda G'.K.Xodjaniyazov To'rtkul tumani hududida noto'g'ri to'rtburchak rejaviy xususiyatga ega bo'lgan Eres (Aris) (360x220 m-7 ga). U kengligi 2 m yo'lakli ikki qator paxsa va kvadratdan g'ishtdan tiklangan ikki qavatli devor o'rab olgan. Tashqi devor o'z navbatida 23-30 m mudofaa maydoniga ega bo'lgan yarim aylana burjlarga ega (soni 15 ta) [19]. 1984-1985-yillarda Xiva shahrining ichki qismida, mudofaa devorida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar jarayonida olingan ashyolar mil.avv IV asrga oid degan xulosaga kelingan. Uning ikkinchi qurilish davri antik davrga tegishli bo'lgan [20]. 1974 yilda M.Mambetullayev rahbarligida guruh Katqal'ada qazish ishlarini olib borib mil.avv IV-III – milodiy IV asrga oid ashyolarni olishga erishgan [21].

Xulosa. Shu tariqa, yuqorida qayd qilingan ma'lumotlar quyidagi yakuniy xulosaga kelish imkonini yaratdi.

-Xorazm vohasining antik davr madaniy-xo'jalik hududlarida arxeologik ekspeditsiya va guruhlarining keng qamrovli ravishda olib borgan arxeologik tadqiqotlar natijalari shaharlarni barpo qilinishi klassik darajaga ko'tarilganligini qayd qilgan. Ular mil. avv IV – milodiy IV asrlarda madaniy-xo'jalik dehqonchilik vohalarining markazlari bo'lishi bilan birga diniy-mafkuraviy vazifani ham bajargan.

-Mil. avv IV asr – IV asrdan e'tiboran, Xorazm vohasida urbanizatsiyon jarayonlar qamrab olishi natijasida ko'plab aholi obyektlari shaharlar tuzilmasiga jalb qilingan.

-Mil. avv IV – milodiy IV asrda O'zbekistonda aholining ma'lum hududda markazlashishi, sug'orma dehqonchilik asosida shaharsozlik madaniyatining rivojlanishiga bo'lgan omil markazlashgan davlatlarning tarix sahifasidan o'rin olganligi bilan izohlanadi.

ADABIYOTLAR.

1. Вактурская Н.Н, Воробьева М.Г.Хроника работ Хорезмской экспедиции АН СССР//ТрХАЭЭ-М.М:Наука, 1952 Т.1.-С.613.
2. Толстов С.П. Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция Академии наук СССР (1945-1948)//Археологические и этнографические работы Хорезмской экспедиции 1945-1948-М,Наука,1952.Т.1.-С.9.
3. Толстов С.П. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР в 1949-1953 гг//ТрХАЭЭ-М, :Наука 1958 Т.II-С-22-23.
4. Толстов С.П. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР в 1949-1953 гг//ТрХАЭЭ-М, :Наука 1958 Т.II -С.23-24.Рис 5.
5. Рапопорт Ю.А.Трудновская С.А. Гауркала//ТрХАЭЭ-М.Наука,1958 Т.II-С.347-366.Рис 1,2.
6. Неразик Е.Е. Керамика Хорезма. Москва.; АН, 1959. С 96-129.
7. Толстов С.П. Работы археолого-этнографической экспедиции в 1954-1956 гг//МХЭ,-М: Наука 1959-Вып-1-С.60-64.
8. Гудкова А.В, Ягодин В.Н. Археологические исследования правобережной дельты Амударьи в 1958-1959 гг//МХЭ,-М.:Наука, 1963,Вып-1-С. 248-258.
9. Ягодин В.Н, К изучению хронологии и топографии древнего Миздахкана//история , археология и этнография Средней Азии//-М, Наука, 1968-С.189-196.
10. Маньлов Ю.П. К изучению городища Кет /Вестник ККФ АнУзССР-Нукус, 1966,- Вып 2-С.99-56.
11. Мухамеджанов А.Р. Бухара-Город двадцати пяти веков//ОНУ,-Ташкент, Фан,1997.Вып 9,10,11-С.3-6.
12. Мамбетуллаев М. Городище Большая Айбуйиркала (Раскопки 1971-1978 ва 1981 гг.//Археология Приаралья –Ташкент, Фан, 1990. Вып 4.-С.28-37.
13. Городище Топраккала-М, Наука, 1981-96 с.
14. Неразик Е.Е. Раскопки в Беркут-Калинском оазисе в 1953-1956 гг//Полевые исследования Хорезмской экспедиции в 1954-1956 гг- М ,Наука,1959, Вып-2. Л-С.96-101.
15. Мамбетуллаев М.Городище Калажик//Вестник ККФ Фан, Нукус, 1983, Вып 1-С.69-73.
16. Вактурская Н.Н.Раскопки средневекового городище Садвар//АШЦ 1975-М,Наука 1976-С.530-542.
17. Мамбетуллаев М, Кдырниязов М.Ш. Городище Воянган//Археология Приаралья-Ташкент Фан, 1982, Вып-1-С.86-91
18. Бижанов Е.Б. Ходжаниязов Г.К. Античные памятники Северо-Западного Хорезма//Античная культура Средней Азии и Казахстана /Тезисы докладов)-Ташкент, Фан, 1979-С.32-33.
19. Ходжаниязов Г.К. К изучению комплекса Эрескала (Арыскала)-//ВКФ-Нукус,1996 Вып 1-С.25-38.
20. Воробьева М.Г, Лапиров-Скобло М.С, Неразик Е.Е. Археологические работы в Хазараспе в 1958-1960 гг//МХЭ,-М, Наука, 1963-Вып VI-С 159-163.
21. Мамбетуллаев М.Маньлов Ю.П. , Юсупов Н, Ходжаниязов Г.К. Исследование в Хорезмской области//АО, 1974-М.:Наука,1975-С.505.